

ARXIVLARNI RAQAMLASHTIRISH

Abdiyeva Sabrina Ravzatillo qizi

Denov tadbirkorlik vapedagogika institut talabasi

E-mail Abdiyevasabrina@gmail.com

telefon raqam : +998 99 294 14 27

Annotatsiya: Ushbu maqolada arxiv hujjatlarini raqamlashtirish jarayonining nazariy asoslari, texnologik bosqichlari, raqamli arxivlarning axborot jamiyatidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi sohasini raqamlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan davlat siyosati, jumladan, Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida belgilangan strategik maqsadlar va ularga erishish yo‘llari batafsil yoritilgan. Shuningdek, raqamlashtirishning texnik va me‘yoriy-huquqiy jihatlari, ushbu jarayonda duch kelinadigan muammolar va ularning yechimlari ilmiy-nazariy manbalar va O‘zbekiston arxivlarining amaliy tajribasiga tayanib o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: arxiv hujjatlarini raqamlashtirish, raqamli arxiv, O‘zbekiston arxiv ishi, Yagona milliy arxiv axborot tizimi, RFID texnologiyasi, “Shajara” axborot tizimi.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of the digitization process of archival documents, technological stages, the role and importance of digital archives in the information society. The state policy on digitization of archival work in the Republic of Uzbekistan is covered in detail, including the strategic goals defined by Presidential Decrees and Cabinet of Ministers resolutions, as well as ways to achieve them. Furthermore, based on scientific-theoretical sources and practical experience of Uzbek archives, the technical and regulatory-legal aspects of digitization, the problems encountered in this process, and their solutions are studied.

Keywords: digitization of archival documents, digital archive, archival work of the Republic of Uzbekistan, Unified National Archival Information System, RFID technology, "Shajara" information system, National Archival Fund, legal framework

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы процесса оцифровки архивных документов, технологические этапы, роль и значение цифровых архивов в информационном обществе. Подробно освещается государственная политика в области оцифровки архивного дела в Республике Узбекистан, в том числе стратегические цели, определённые указами Президента и постановлениями Кабинета Министров, а также пути их достижения. Кроме того, на основе научно-теоретических источников и практического опыта архивов Узбекистана изучены технические и нормативно-правовые аспекты оцифровки, проблемы, возникающие в этом процессе, и пути их решения.

Ключевые слова: оцифровка архивных документов, цифровой архив, архивное дело Республики Узбекистан, Единая национальная архивная информационная система, технология RFID, информационная система «Шаджара», Национальный архивный фонд, нормативно-правовая база.

KIRISH

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi barcha sohalarda bo'lgani kabi arxiv ishida ham tub o'zgarishlarni talab qilmoqda. Aholining axborotga bo'lgan ehtiyoji ortib, davlat va jamiyat hayotida raqamli xizmatlarning o'rnini kuchayib borayotgan bir sharoitda, arxiv hujjatlarini raqamlashtirish masalasi muhim davlat ahamiyatiga molik vazifaga aylangan. Raqamlashtirish jarayoni qog'oz, pergament, fotosurat, kino, ovoz va videolentalardagi yozuvlarni raqamli nusxaga o'tkazishni o'z ichiga oladi.

ASOSIY QISM

Raqamlashtirishning nazariy asoslari va bosqichlari. Arxiv hujjatlarini raqamlashtirish murakkab va ko'p bosqichli texnologik jarayon bo'lib, u tarmoqlashtirish, tanishish, platformalashtirish va algoritmlashtirish kabi o'zaro bog'liq bosqichlarni o'z ichiga oladi. Raqamli arxivlarning asosiy vazifasi katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalanuvchilarning qulay foydalanishini ta'minlashdan iborat [4, 23 -b]. O'zbekistonda arxiv sohasini raqamlashtirishning huquqiy asoslari va strategiyasi. O'zbekistonda arxiv sohasini raqamlashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-noyabrda PF-228-son Farmoni arxiv sohasini 2030-yilgacha raqamlashtirishning asosiy hujjati hisoblanadi [2, 67- b]. Farmonga ko‘ra, asosiy maqsad Milliy arxiv fondi hujjatlarining 60 foizini raqamlashtirish, elektron xizmatlar ulushini 100 foizga yetkazish va xizmat ko‘rsatish muddatlarini kamida 3 barobarga qisqartirish hisoblanadi. Raqamlashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: birinchi bosqichda (2025-2027-yillar) alohida qimmatli va noyob hujjatlar, mol-mulk va yerga oid arxiv hujjatlari raqamlashtiriladi. Ikkinchi bosqichda (2028-2029-yillar) kino, foto, fono va ilmiy-texnik arxiv hujjatlari, uchinchi bosqichda (2030-yildan) esa Milliy arxiv fondining boshqa arxiv hujjatlari raqamlashtiriladi. Farmonga muvofiq, 2026-yil 1-iyundan Yagona milliy arxiv axborot tizimi joriy etiladi [1, 13 – b] . Barcha jarayonlar raqamli muhitga o‘tkazilib, davlat arxivlarida saqlanayotgan noyob hujjatlar harakatini avtomatlashtirish uchun RFID (radiochastotali identifikatsiya) texnologiyasi joriy etiladi. Bu texnologiya hujjatlarning real vaqtda harakatini kuzatish va ularning xavfsizligini ta’minlash imkonini beradi. Amalga oshirilgan ishlarning samaradorligi aniq natijalarda ko‘rinmoqda.

XULOSA

Arxiv hujjatlarini raqamlashtirish zamonaviy axborot jamiyatining ajralmas qismi va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekistonda bu borada yaratilgan mustahkam huquqiy baza, bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan strategik rejalar va ko‘lamli amaliy ishlar mavjud. Raqamlashtirish jarayonida to‘plangan tajriba sohani yanada takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish va xalqaro standartlarga to‘liq o‘tish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Arxiv ishi sohasini raqamlashtirish va sohada boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2025 yil 24-noyabr, PF-228-son.
2. Azimov I. “Raqamli arxiv”. Zenodo, 2023.
3. “O‘zbekiston Respublikasi davlat arxivlarida alohida qimmatli arxiv hujjatlarini raqamlashtirish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar”. “O‘zarxiv” agentligi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Arxiv hujjatlari, kitoblar va qo‘lyozmalarni raqamlashtirish (elektron nusxa olish) bo‘yicha davlat xizmati ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti to‘g‘risida”gi qarori, 2020 yil 19-avgust, 495-son.
5. “2024-yil uchun arxiv ishlarini rivojlantirish rejasi muvaffaqiyatli bajarildi”. Anhor.uz, 2025 yil 5-fevral.
6. “Arxiv sohasida “Shajara” axborot tizimi ishga tushiriladi”. Uza.uz, 2025 yil 26-noyabr.